

PREZIDENTIMIZ SHAVKAT MIRZIYOYEVNING BOSHQA DAVLATLAR
BILAN DIPLOMATIK ALOQALARI

Rustamova Feruza Musurmanovna

*Qashqadaryo viloyati Yakkabog` tumani Oxunboboyev
2- son o`rta umumta`lim maktabi tarix fani o`qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Davlatimiz rahbari Markaziy Osiyo davlatlari bilan do'stona, yaqin qo'shnichilik va o'zaro manfaatli aloqalarni mustahkamlash va rivojlantirishni asosiy tashqi siyosiy yo'nalish sifatida belgilab bergani haqida, O'zbekiston 1991-yil mustaqillikka erishgandan so'ng dunyo hamjamiyatining to'laqonli a'zosi sifatida o'zining mustaqil tashqi siyosatini amalga oshira boshlagani haqida so'z boradi.*

Kalit so`zlar: *diplomatik aloqalar, Prezident, tashqi siyosat, hamkorlik, aloqa, rivojlanish, mustaqillik.*

O'zbekiston Respublikasi ko'p tomonlama hamkorlik aloqalarini rivojlantirish uchun faol va tinchlikparvar tashqi siyosat yuritgan. Masalan, 1992-yil 2-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining teng huquqli a'zosiga aylanib, xalqaro minbarlarda mamlakat nomidan turli xil takliflar ilgari surishni boshlagan. Jumladan, butun dunyoda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, Afg'onistonda tinchlik o'rnatish, xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ko'maklashish, yadro quroli tarqalishining oldini olish bo'yicha bildirilgan takliflar jahon hamjamiyatini birlashtirishga intilayotgan BMT tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlandi. O'zbekiston BMTning bir qator ixtisoslashtirilgan muassasalari, jumladan, Xalqaro valyuta fondi (XVF), Jahon banki, BMTning Yevropa bo'yicha iqtisodiy komissiyasi (YeIK), Jahon savdo tashkiloti (JST) kabi tashkilotlar bilan keng ko'lamli hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ydi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi BMT doirasidagi ixtisoslashgan muassasalar: Xalqaro bolalar jamg'armasi (YuNISEF), Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro Olimpiya qo'mitasi, Xalqaro mehnat tashkiloti va boshqa tashkilotlarga ham a'zo bo'ldi.

Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish orqali tashqi siyosatda yuqori reytinglarga ega bo'lish davomida tizimda uchragan ba'zi kamchiliklar tufayli mamlakatimizda bir muddat tashqi aloqalar sezilarli darajada sustlashib qoldi. Ayniqsa, bu holat 2000-yillar o'rtalaridan boshlab sezila boshladi. Xorijiy davlatlar bilan, eng asosiysi, bizga chegaradosh bo'lgan mamlakatlar bilan turli sohalaridagi hamkorlikning sustlashishi natijasida tizimda ko'plab muammolar paydo bo'ldi. Biroq, 2016-yilning so'nggi choragida prezident etib saylangan Shavkat Mirziyoyev bu holatni chuqur anglagan xolda turli sohalar qatori tashqi siyosat tizimini ham tanqidiy qayta ko'rib chiqish va uni kuchaytirish ustuvor vazifa ekanligiga alohida e'tibor qaratdi. Bu borada bir qancha amaliy ishlar olib borildi. Jumladan, mamlakatimiz rahbari 2018-yilning yanvar oyida mamlakatimiz tarixida ilk bor O'zbekistonning xorijiy davlatlardagi elchilari bilan ochiq onlayn muloqot o'tkazdi. Bundan tashqari, 2017-yilda Samarqand shahrida "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, taraqqiyot va barqaror rivojlanish yo'lidagi hamkorlik" mavzusida 500 nafardan ortiq delegat ishtirok etgan anjuman bo'lib o'tdi. Davlatimiz rahbari Markaziy Osiyo davlatlari bilan do'stona, yaqin qo'shnichilik va

o'zaro manfaatli aloqalarni mustahkamlash va rivojlantirishni asosiy tashqi siyosiy yo'nalish sifatida belgilab berdi. Tariximizning, dinimizning, madaniyatimizning, tilimizning birligi, tomirlarimizning tutashib ketganligi hozirgi tahlikali zamonda bu mamlakatlar xalqlarini yanada yaqinlashtirish kerakligini har qachongidan ham ko'proq taqozo eta boshladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-yilda O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan munosabatlarida yangi davr boshlandi. Shu yilning o'zida Turkmaniston, Qozog'iston va Qirg'iziston davlatlariga davlat tashriflar amalga oshirildi. Davlat rahbarlari o'rtasida ochiq va ishonchli siyosiy muloqotni mustahkamlash natijasida mintaqadagi qo'shniçilik munosabatlarida 2016 -yilgacha mavjud bo'lgan ko'plab murakkab muammolarga yechim topildi. O'zbekistonning zamonaviy tashqi siyosati faol, tashabbuskor va pragmatik tashqi siyosiy kurs olib borishni hamda yuzaga kelayotgan xavf-xatarlarga o'z vaqtida javob berishni talab etadigan XXI asrning o'ta shiddat bilan o'zgarib borayotgan xalqaro-siyosiy voqeliklarini inobatga olgan holda qurilmoqda. Bular O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan mustahkam aloqada bo'lganligidan, har tomonlama manfaatli hamkorlikni yanada chuqurlashtirib borayotganidan dalolat beradi. Xalqaro hamkorliklar doirasida qabul qilingan hujjat va kelishuvlarni o'z vaqtida to'liq bajarish maqsadida 40 ta "yo'l xaritasi" ishlab chiqildi va xorijiy hamkorlarimiz bilan birgalikda amalga oshirilmoqda.

Dunyo xabariga ko'ra, ikki davlat hukumatlari nomidan hujjat O'zbekistonning BMTdagi doimiy vakili, elchi Baxtiyor Ibragimov va Dominikaning BMTdagi doimiy vakili, elchi Lorin Bannis-Robers tomonidan imzolangan.

Dominika Hamdo'stligi Karib dengizining sharqida joylashgan orol davlatidir. Mamlakat maydoni 751 kvadrat kilometrdan iborat. Aholi soni 70 ming kishini tashkil etadi. Dominika BMT, Britaniya Millatlar Hamdo'stligi, Karib Hamjamiyati (SARISOM), Karib umumiy bozori va Sharqiy Karib davlatlari tashkiloti a'zosi hisoblanadi.

O'zbekiston va Dominika Hamdo'stligi o'rtasidagi hamkorlikning o'zaro manfaatli yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha ikki tomonlama aloqalarni muntazam davom ettirish bo'yicha kelishuvga erishildi.

O'zbekiston 1991-yil mustaqillikka erishgandan so'ng dunyo hamjamiyatining to'laqonli a'zosi sifatida o'zining mustaqil tashqi siyosatini amalga oshira boshladi. O'tgan 30 yil mobaynida o'zbek diplomatiyasi katta yo'lni bosib o'tdi. Bugungi kunda O'zbekiston dunyoning 134 mamlakati bilan diplomatik aloqalarni o'rnatgan va xorijiy mamlakatlarda 35 ta elchixonona, 17 ta bosh konsulxonona va xalqaro tashkilotlar huzurida 3 ta doimiy vakolatxonona faoliyat olib bormoqda.

2017-yildan boshlab o'zbek diplomatiyasida sifat jihatdan butunlay yangi sahifa ochilib, respublikamizning xalqaro maydonda olib borayotgan faoliyati yangi bosqichga chiqdi, deb aytish mumkin. Buning asosiy sababi - mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan dunyoga ochiqlik siyosati, birinchi navbatda yaqin qo'shnilarimiz, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik yangi bosqichga olib chiqildi. Davlatimiz rahbari tashqi siyosatda amalga oshirilishi mo'ljallangan birinchi navbatdagi vazifalar xususida BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida alohida ta'kidlab o'tdi.

Chorak asrdan ko‘proq vaqt davomida Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida bir qator muammolar vujudga kelgan edi. Suv-energetika resurslari va transport kommunikatsiyalaridan foydalanish, davlat chegaralarini delimitatsiya qilish va chegara punktlarini kesib o‘tish kabilar shular jumlasidandir.

Tanlangan yangi tashqi siyosat yo‘nalishiga mos ravishda, O‘zbekiston rahbari so‘nggi 3 yil mobaynida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari bilan mintaqaviy xavfsizlik, tinchlik va osoyishtalik hamda barqaror iqtisodiy taraqqiyotga oid dolzarb masalalarni birgalikda hal etishga qaratilgan konstruktiv muloqotni olib bormoqda.

Prezidentning Parlamentga har yili murojaat qilish amaliyoti dunyoning ko‘plab mamlakatlarida mavjud. Unda yaqin kelajakda amalga oshirilishi kerak bo‘lgan strategik maqsad va vazifalar belgilab beriladi. O‘zbekiston tarixida birinchi marta respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil dekabr oyida Oliy Majlisga murojaat qildi va tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishi yaqin qo‘shnilar bilan konstruktiv muloqot va kuchli tashqi siyosat olib borish ekanligini ta’kidladi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston rivojlanishining besh ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining beshinchi yo‘nalishi ochiq, konstruktiv va o‘zaro manfaatli tashqi siyosat olib borishni, shu jumladan, O‘zbekiston atrofida xavfsizlik, barqarorlik va yaxshi qo‘shnichilik kamarini yaratishni ko‘zda tutadi. Bu Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari bilan hamkorlik mamlakatimiz uchun juda muhim ekanini yana bir bor ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Markaziy Osiyoning markazida joylashgan bo‘lib, mintaqadagi barcha davlatlar o‘rtasidagi muhim bo‘g‘in hisoblanadi va mintaqaviy hamkorlikning asosiy katalizatori bo‘lib hisoblanadi. So‘nggi 3 yil mobaynida olib borilgan muloqot natijasida Markaziy Osiyoda mutlaqo yangi ishonch muhiti yaratildi, do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilikka asoslangan munosabatlar mustahkamlanmoqda. 2017-yildan buyon mamlakatimiz o‘zaro manfaatli hamkorlik qilish va mintaqada xavfsizlikni ta’minlash maqsadida barcha yo‘nalishlarda ochiq tashqi siyosat olib bormoqda.

Mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash va o‘zaro ishonchni kuchaytirish, mavjud muammolarni o‘z vaqtida hal etishning muhim mexanizmi sifatida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil noyabr oyida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining doimiy maslahatlashuv uchrashuvlarini tashkil qilishni taklif qildi va bu tashabbus mintaqa mamlakatlari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Jumladan, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining birinchi maslahat uchrashuvi 2018-yil 15-mart kuni Ostonada (hozirgi Nur-Sulton) bo‘lib o‘tdi. Sammitda siyosiy, savdo-iqtisodiy va gumanitar hamkorlikni kengaytirish, terrorizm, ekstremizm, narkotrafik va qurol-yarog‘ kontrabandasiga qarshi birgalikda kurashish, xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi. Markaziy Osiyo nafaqat geografik va geosiyosiy, balki yagona madaniy va sivilizatsiya makonidir, deya e’tirof etildi. Markaziy Osiyo mamlakatlarining barcha sohalarida teng huquqli sheriklik va hamjihatlik asosida hamkorligi mintaqa rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Mamlakatimiz rahbarining tashabbuslari, faol va pragmatik diplomatiya hamda tashqi siyosat tufayli bugungi kunda Markaziy Osiyoda mutlaqo yangi, konstruktiv siyosiy muhit vujudga keldi va transc chegaraviy suv resurslaridan oqilona foydalanish, chegaralarni delimitatsiya va

demarkatsiya qilish, chegara punktlarini kesib o‘tish, transchegaraviy savdoni rivojlantirish kabi eng dolzarb muammolarni hal qilish uchun qulay sharoitlar yaratildi.

Bularning barchasini O‘zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida keyingi uch yil mobaynida mamlakatimiz rahbariyati tomonidan olib borilayotgan yaqin va o‘zaro manfaatli qo‘shnichilik aloqalarini rivojlanish borasidagi izchil tashqi siyosatning hosilasi hamda mustaqil o‘zbek diplomatiyasining katta yutug‘i, deb aytish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 26 oktyabrdagi “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi ПФ-4853-sonli Farmonida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar.

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 32 b.

3. irziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. –T: “O‘zbekiston” NMIU, 2018.-88 b.

5. Damirovich, M. R., Kholikulovna, M. E., & Ibragimovna, A. S. (2022). THE USE OF INNOVATIVE TECHNIQUES IN TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE. Ijodkor o‘qituvchi, 2(19), 483-488.

6. Damirovich, M. R., & Ibragimovich, T. I. (2022). Sattarovich AU THE ROLE OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EVENTS IN PROMOTING THE IDEAS OF RELIGIOUS TOLERANCE AND INTERNATIONAL HEALTH. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10, 1.

7. Дехканбаева, М. Н., Накибов, К., & Мустаев, Р. (2019). ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ОПУСТЫНИВАНИЯ. Экономика и социум, (11), 939-942

8. Мустаев, Р. Д., & Абдуллаев, С. А. (2020). АМИР ТЕМУР ВА ТЕМУРИИЛАР ДАВРИДА АХЛОКИЙ-ЭСТЕТИК ГОЯЛАРНИНГ РИВОЖЛАИИШИ. Интернаука, (24-3), 23-24.